

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

# UZBEKISTAN

## LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2024 Vol. 2

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

ISSN 2181-922X

# **O‘ZBEKISTON:**

**TIL VA MADANIYAT**

# **UZBEKISTAN:**

**LANGUAGE AND CULTURE**

2024 Vol. 2

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)

[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Shuhrat Sirojiddinov

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Nodir Jo'raqo'ziyev

**Mas'ul kotib:** Ozoda Tojiboyeva

### **Tahrir kengashi**

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farxod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ūlvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

### **Tahrir hay'ati**

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabethta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Ūşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

**Email:** uzlangcult@gmail.com  
**Website:** www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

**Editor-in-Chief:** Shuhrat Sirojiddinov

**Deputy Editor in Chief:** Nodir Jurakuziev

**Executive secretary:** Ozoda Tajibaeva

### **Editorial board**

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

### **Editorial Committee**

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

**Email:** uzlangcult@gmail.com

**Website:** www.uzlc.navoiy-uni.uz

## MUNDARIJA

### Lingvistika

#### **Samixon Ashirboyev, Janat Aymuhambet**

Turkiy til strukturasi mahalliy ziyolilar talqinida.....6

#### **Munavvara Qurbonova**

Bolalar nutqiga xos illokutiv aktlarning semantik tasnifi.....18

#### **Gulnoraxon Niyazova**

Detektiv fantastikadagi pragmatik moslashuv.....32

#### **Afag Gemberova, Gulgun Huseynli**

Tilshunoslikda yangi fundamental tushuncha:

“Dunyoning til manzarasi.....56

#### **Jumanazar O‘rozov**

Sud-tergov jarayoni bilan bog‘liq yozma matnlarning identifikatsion lingvistik belgilari xususida.....68

#### **Sanjar Islomov**

Milliy va anglosakson ilmiy kontekstlarida lingvokulturologiya.....83

#### **Kamaraddin Davletov**

Olamning hissiy-konseptual manzarasi, hissiyotlar va qo‘rquv konsepti.....106

### Adabiyotshunoslik

#### **Shahlo Hojiyeva**

Sharq-u G‘arb ma‘rifatchilik adabiyotining uyg‘unligi va o‘ziga xosligi.....120

#### **Oynisa Hojiyeva**

Özbek – Türk Atasözlerinin Karşılaştırmalı Analizi.....138

## CONTENT

### Linguistics

**Samikhan Ashirbaev, Janat Aymuhambet**

Turkish Language Structure in the Interpretation of Local Intellectuals.6

**Munavvara Kurbonova**

Semantic classification of Illocutionary acts Characteristic of

Children's.....18

**Gulnorakhon Niyazova**

Pragmatic Adaptation in Detective Fiction.....32

**Afag Gemberova, Gulgun Huseynli**

A new Fundamental Concept in linguistics: "Language

Landscape of the World".....56

**Jumanazar Urozov**

On the identification Marks of Manuscript Texts Relating to the

Judicial Process.....68

**Sanjar Islomov**

Linguoculturology in National and Anglo-Saxon scientific contexts.

Comparative analysis.....83

**Kamaraddin Davletov**

Emotional-conceptual picture of the world, emotions and the

Concept of Fear.....106

### Literature

**Shahlo Hojiyeva**

The Harmony and Uniqueness of the Literature of the East-West

Enlightenment.....120

**Oynisa Hojjeva**

Comparative Analysis of Uzbek – Turkish Proverbs.....138

## Milliy va anglosakson ilmiy kontekstlarida lingvokulturologiya

Sanjar Islomov<sup>1</sup>

### Abstrakt

Ushbu maqolada milliy kontekstlardagi lingvokulturologiya fani, tadqiqot yo'nalishi, metodologiyasi hamda anglosakson, jumladan, nemis-zabon ilmiy kontekstlarida lingvokulturologiya konseptiga muqobil bo'lgan madaniy (analitik) tilshunoslik tadqiqot yo'nalishi, dasturi hamda metodologiyalarining status quo holati, rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu qarashlar zamiridagi antroposentrik va funksional paradigmalar ham ko'rib chiqilgan hamda qiyosiy tahlil qilingan. Jumladan, dunyoning ko'plab ilmiy kontekstlarida ko'p vaqt davomida tilga bir tomonlama formal-struktural yondashuv natijasida reduksionizm vujudga kelgan.

An'anaviy tilshunoslikning kamchiliklarini yengib o'tish maqsadida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikka yondosh fanlar doiralarida tilning madaniy aspektlarini ham tadqiq qiluvchi, yangi shakllangan defisli-lingvistikalar hamda funksional paradigma tadqiqot uslubining shakllanishiga zamin yaratgan jarayonlar tahlil qilingan. Ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida xalqaro miqyosda amalga oshirilgan lingvistik, madaniy hamda pragmatik burilishlarga atroflicha to'xtab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** *lingvokulturologiya, madaniy (analitik) tilshunoslik, til, madaniyat, tafakkur, muloqot, metodologiya, nazariy asos, paradigma, antroposentrizm, funksional paradigma, strukturalizm, langue, parole, cultural turn, linguistic turn, pragmatic shift.*

### Kirish

Oxirgi yillarda O'zbekiston Oliy ta'lim va ilmiy kontekstlarida "Lingvomadaniyatshunoslik", "Lingvokulturologiya", "Lingvomamlakatshunoslik" kabi tushunchalar, fan va shu nomdagi ilmiy tadqiqot yo'nalishining amaliyotda keng qo'llanilayotganini kuzatish mumkin. Tegishli ilmiy maqolalarda "lingvokulturologiya"

<sup>1</sup> *Islomov Sanjar Ro'ziqulovich* – doktorant, Germaniya Múnster universiteti.

**E-mail:** [islomov@uni-muenster.de](mailto:islomov@uni-muenster.de)

**ORCID ID:** 0000-0002-1746-9046

**Iqtibos uchun:** Islomov, S. R. 2024. "Milliy va anglosakson kontekstlarida lingvokulturologiya". *O'zbekiston: til va madaniyat 2*: 89 – 105.

konsepti, asosan, lingvistika va madaniyatshunoslik fundamental fanlari kesishmasida vujudga kelgan, til bilan madaniyat o'rtasidagi musobatlarni o'rganuvchi fan deya ta'rif berilib, uning mustaqil, fanlararo fundamental va klassik fanlar qatoriga kirib ulgurani ta'kidlanadi [Solijonov 2023, 18-19; Yigitaliyeva 2023, 19-21; Shayxislamov 2020, 221-231]. Darhaqiqat, "Lingvokulturologiya" amaliyotda bir qancha OTM ta'lim yo'nalishlari (Filologiya va tillarni o'qitish) va mutaxassisliklari (Lingvistika) o'quv rejalariga tanlov fan yoki mutaxassislik fani sifatida kiritilgan. Xorijiy tillarni o'rganuvchi ta'lim yo'nalishlari doirasida esa (Xorijiy til va adabiyoti) "Lingvokulturologiya" fani tanlov fani sifatida o'qitilmoqda. Mazkur tadqiqot konsepsiyasi hamda fanning o'zbek tilshunosligida mustahkam o'rin olgani, zamonaviy yo'nalishlardan deya ta'riflanishi, o'quv adabiyotlari [Maxmaraimova 2017; Usmanova 2019; 2014] maqolalar, o'zbek tilshunosligi doirasida o'rganilish holatidan [Usmanova 2019, 23; Shayxislamov 2020, 22] hamda fanning ichki sinergetikasi natijasida yanada ixtisoslashgan, "lingvoma'naviyatshunoslik" fan yo'nalishini tashkil qilishga qaratilgan urinishlardan [Mengliyev 2018] ham ko'rish mumkin.

Qayd etish joizki, tilning madaniyat bilan uzviy bog'liqligi masalalari lingvokulturologik tadqiqotlarga parallel va mustaqil ravishda chet tillari fanlari doirasida, dastlab, "o'lkashunoslik" (Landeskunde yoki country studies) va keyinchalik "madaniyatlararo muloqot" fani doirasida ham o'rganib kelinadi. Xorijiy tillar bo'yicha yurtimizda asosiy mutaxassislarni yetishtirib beruvchi ikki yetakchi bakalavr - "Xorijiy til va adabiyoti (xorijiy tillar)" hamda "Filologiya va tillarni o'qitish (roman-german filologiyasi)" ta'lim yo'nalishlari<sup>1</sup> davlat ta'lim standartlari va o'quv me'yoriy hujjatlarida "chet tili kommunikativ", "ijtimoiy-madaniy", "diskursiv" hamda "ijtimoiy" kompetensiyalarni shakllantirish bo'limlarida til va madaniyat uyg'unligi qarashlaridan kelib chiqqan talablar qo'yilganini ko'rish mumkin [Islomov 2023, 104-119].

### Asosiy qism

Lingvokulturologiya fan sifatida XX asrning 90-yillaridan boshlab rus olimlari V.N.Teliya, Y.Y.Stepanov, N.D.Arutyunova, V.V.Vorobyev, V.M.Shaklein maktablari asosida shakllangan

---

<sup>1</sup> 5111400 - Xorijiy til va adabiyoti bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talablari. O'zR OO'MTV tomonidan 14.08.2020-yilda Nr-418 sonli buyruq bilan tasdiqlangan; 5111400 - Xorijiy til va adabiyoti bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talablari. O'zR OO'MTV tomonidan 25.08.2018-yilda Nr-744 sonli buyruq bilan tasdiqlangan.

[Usmanova 2019, 23-24]. Fanning nazariy-metodologik asoslari sifatida XIX asrda V.fon Gumboldt va keyinchalik Gumboldt qarashlariga asoslangan neogumboldtchilar (A.A.Potebnya, L.Vaysberger, X.Glins, X.Xols) va Amerika tilshunoslari E.Sepir va B.L.Uorflarning lisoniy mansublik gipotezasi g'oyalari ko'rilishi qayd etiladi [Shayxislamov 2020, 223; Yigitaliyeva 2023, 20].

Jumladan, lingvomadaniyatshunoslik fani vujudga kelishida ilmiy-nazariy jihatdan zamonaviy tilshunoslikdagi yangi antroposentrik paradigma hal qiluvchi o'ringa ega bo'lgani olimlar tomonidan qayd etiladi [Yigitaliyeva 2023, 20]. Usmanova tilshunoslikda mavjud paradigmalarni umuman uchga bo'ladi. Olimaning fikriga ko'ra, XIX asrda asosan qiyosiy-tarixiy, XX asrda sistem-struktur yoki strukturalizm paradigmalari ustuvor bo'lgan bo'lsa, hozirga kelib antroposentrik paradigma zamonaviy tilshunoslikning asosini tashkil qilmoqda. Antroposentrik paradigmaga muvofiq tadqiqotchilar qiziqishlari obyektidan subyektga o'zgarib, endilikda insonning tilda hamda tilning esa insonda tahlil qilinishi diqqat markazida bo'ladi. Olimaning fikricha, tilshunoslik hamda umuman ijtimoiy fanlar sohasida turli paradigmalar bir-biriga qarama-qarshi qutblarda emas, balki bir-birini to'ldiruvchi, avtonom va parallel tarzda mavjud bo'lishi mumkin [Usmanov 2019, 12-13]. Xuddi shunga yaqin fikrni olim Yuriy Dorofeev ham ilgari suradi. Uning fikriga ko'ra, XXI asr boshiga kelib tilshunoslik fani doirasida butun sohaning nazariy va asosiy qarashlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo qiluvchi antroposentrik ilmiy paradigma katta maydonga chiqqan. Tilshunoslikdagi mazkur antroposentrik burilish sababi sifatida shu paytgacha amal qilib kelingan "til qanday qurilgan" degan savoldan "til qanday ishlatiladi" savoliga o'tilishi bo'ldi [Dorofeev 2008, 302]. Zero, mohiyatan til insondan mustaqil mavjud bo'lgan tizim emas, balki bevosita inson bilan bog'liq antroposentrik xarakterga ega bo'lgan antropologik fenomendir. Antroposentrizmning eng muhim bo'g'ini hamda yangi tadqiqot obyekti bu lisoniy shaxsdir [Kostomarov 2014, 198].

Bir qator olimlar fikricha, zamonaviy lingvokulturologiya hali to'liq o'z metodologik bazasiga ega emas. Bunga sabab sifatida turli omillar keltirib o'tiladi. Jumladan, mazkur yo'nalishda tadqiqotlar yaqin yillarga kelibgina boshlangani [Shayxislamov 2020, 222] yoki lingvokulturologiya fani kulturologiya, tilshunoslik, etnolingvistika va madaniy antropologiya fanlari tadqiqotlarini integratsiya qiluvchi soha hisoblanishi [Usmanova 2019, 37-38], Maslovaga ko'ra, o'rganish tadqiqot obyektlari til va madaniyatning

ko'p qirraligi sababli qator metodlarning qo'llanilishi tabiiyligi [Yigitaliyeva 2023, 21; Usmanova 2019, 37-38] sabablarini keltirib o'tish mumkin. Shundan kelib chiqqan rus lingvokulturologlari amaliyotida bo'lgani singari o'zbek lingvokulturologiyasida ham tilshunoslik, kulturologiya, sotsiologiya (kontent-tahlil, freym tahlil, oshkora intervyu), etnografiya (tasvirlash, dala etnografiyasi uslublari bo'lmish bayon qilish, tasniflash, qoldiqlar uslublari), eksperimental-kognitiv lingvistik uslublar va bundan tashqari metaforalarni tahlil qilish apparati (J.Lakoff), mikrokomponent model (V.N.Teliya), psixosotsiokulturologik eksperiment, matnlarni lingvokulturologik tahlil qilish kabi tahlil metodlaridan foydalanish, bunda tadqiqot maqsadi, obykti va predmet xususiyatlariga doir tegishli uslub tanlanadi [Usmanova 2019, 38; Yigitaliyeva 2023, 21].

Lingvokulturologiyaning predmetlari aniq belgilab olingan bo'lsa-da, uning obykti borasida turlicha fikrlarni uchratish mumkin. Jumladan, V.N.Teliya lingvokulturologiya obykti bir millat doirasida emas, umuminsoniy doiradagi madaniy ma'lumotlar deb ta'kidlaydi [Solijonov 2023, 18]. Lingvokulturologiya sohasidagi ko'plab tadqiqotlarning aynan boshqa tillar bilan qiyosiy-chog'ishtirma perspektivadan olib borilayotgani inobatga olinsa, bu borada V.N.Teliya fikrining haqligini ko'rish mumkin.

Lingvokulturologiya kategoriyalar apparatining asosiy tushunchalari va terminlari ishlab chiqilgan. Unga muvofiq "Lingvokulturologik konsept" fanda eng ko'p qo'llaniluvchi birlik hisoblanadi. Konsept lingvomadaniy birlik sifatida madaniyatning o'ziga xos jihatlarini ifodalab keladi. "Uy" konsepti bilan misol uchun o'zbek kishilarining ongida yashash joyi, turli attributdagi uylar, mehribonlik, dam olish uylari, uy ichi – oila a'zolari kabi ko'chma ma'no birliklari kabi assotsiatsiyalar uyg'onadi [Usmanova 2019, 44-45; Yigitaliyeva 2023, 19].

Lingvokulturologik tahlilning asosiy birligi sifatida V.V.Vorobyov tomonidan fanga olib kirilgan "lingvokulturema" tushunchasidan keng foydalaniladi. Shuningdek, Vorobyov lingvokulturema tushunchasini so'zdan farqlashda A.A.Potebnyaga suyangan holda lingvokulturemani so'zning yaqin va uzoq ma'noga ega ekanligi yoki uning lisoniy ma'no bilan birga madaniy, konnotativ mazmunga ega bo'lishi bilan farqlaydi [Shayxislamov 2020, 225].

Linguokulturologik birliklar sifatida V.A.Maslova lingvokulturemalarni quyidagicha tasniflaydi va mazkur birliklarning har biri fanning tadqiqot obykti bo'la olishini ta'kidlaydi. 1) Muqobilsiz

leksika va lakunalar, 2) mifologiyalashtirilgan til birliklari, 3) tilning paremiologik fondi, 4) tilning frazeologik fondi, 5) o'xshatishlar, ramzlar, stereotiplar, 6) tilning metaforalari va obrazlari 7) tillarning stilistik qatlami, 8) nutqiy muomala, 9) nutq etiketi [Usmanova 2019, 27-33; Solijonov 2023, 18]. Hozirgi vaqtda lingvokulturologik tadqiqotlarda, ayniqsa, frazeologizm va paremiyalar tilda madaniy belgilarni aks ettiruvchi asosiy birliklar sifatida tadqiq etilmoqda [Shaxsislamov 2020, 225].

Fanning kelajakda rivojlanishi borasida ham turli fikrlarni uchratish mumkin. Ayrim olimlar fanga qiziqishning ortib borayotgani, fanning ichki rivojlanish jarayonida yangi qarashlar vujudga kelayotganini ta'kidlashsa [Solijonov 2023, 19; Shaxsislamov 2020, 225], boshqa olimlar lingvokulturologiya fani mustaqil fan sifatida hali o'z oldida turgan bir qancha vazifalarni yechishi lozimligini qayd etishadi [Yigitaliyeva 2023, 20-21]. Olima Usmanovaga ko'ra, hozirda zamonaviy lingvokulturologiya asoslanuvchi har uchala metodologik asoslar, ya'ni V.f.Gumboldt va A.A.Potebnya ta'limoti, olamlarning ko'pligi va lisoniy nisbiylik gipotezalari, bugungi globallashuv, integratsiyalashuv jarayonida eskirgan, real hayotdan uzilgan hisoblanishini ta'kidlaydi. Shunga muvofiq olimaga ko'ra, lingvokulturologiyaning asosiy vazifasi tilshunoslik yo'nalishi doirasidan chiqish, til va madaniyatning jonli jarayonlarini tasvirlay olish hamda til va madaniyat rivojlanishini ilmiy bashorat qilishdan iborat bo'lmog'i lozim [Usmanova 2019, 38-39].

Lingvokulturologiya fani va tadqiqot yo'nalishi hamda mazkur fan zamirida yotishi ta'kidlanuvchi antroposentrik paradigmaning anglosakson hamda nemiszabon mamlakatlar ilmiy kontekstlarida aytarliq rivojlanmaganini kuzatish mumkin. Mavjud ilmiy ba'zalar, onlayn va oliy ta'lim muassasalarining kataloglarida "lingvokulturologiya" yoki "lingvomadaniyatshunoslik" kalit so'zlari yordamida berilgan qidiruvlar deyarli natija bermaydi. Xuddi shunday "antroposentrik paradigma" haqida ham tegishli ilmiy adabiyotlardan ma'lumot topish mushkul. Ammo, til va madaniyat va ong yoki til va muloqot va madaniyat uyg'unligi masalalari bilan shug'ullanuvchi, ta'bir joiz bo'lsa, lingvokulturologiya o'rganish predmeti va obyekt bilan shug'ullanuvchi, nazariy va metodologik profillari hali to'liq shakllanib ulgurmagan, bir qancha yangi ilmiy tadqiqot yo'nalishlari, metodologiyalarini ham uchratish mumkin.

Anglosakson mamlakatlarda bu soha til va madaniyat konseptlaridan tashqari boshqa madaniy konseptlarni o'z ichiga oluvchi, kengroq tushuniladigan "cultural studies" yoki asosiy

fokusini til va madaniyat munosabatlariga qaratgan “cultural linguistics”, “anthropological linguistics”, “linguistic anthropology” nomlari ostida [Kuße 2012, 17] va nemiszabon mamlakatlarda “kulturwissenschaftliche Linguistik – madaniy tilshunoslik” [Kuße 2012; Kycce 2016], “kulturwissenschaftliche Orientierung in der Sprachwissenschaft – madaniy fanlarga asoslanuvchi tilshunoslik”, “kulturwissenschaftlich orientierte Linguistik – madaniy fanlarga asoslangan tilshunoslik”, “Sprachwissenschaft als Kulturwissenschaft – Tilshunoslik madaniy fan sifatida” [Eichinger, Kämper 2008; Jäger et.al. 2016] yoki “Kulturanalytische Linguistik – madaniy analitik tilshunoslik” [Günthner, Linke 2006] nomlari ostida yuritiladi.

Nemiszabon mamlakatlar, xususan, Germaniya ilmiy doiralarida ham bu borada bir-biridan mustaqil ravishda rivojlanayotgan ikki yoʻnalishni farqlash mumkin. Dastlabki yoʻnalishda tilning tafakkur, madaniyat hamda muloqot bilan bogʻliqligi masalalari oʻrganilib bu yoʻnalishda, jumladan, 2006-yilda Germaniyada tilshunoslar oʻrtasida eng nufuzli hisoblangan “Zeitschrift für deutsche Germanistik – ZGL” ilmiy jurnalida Susanne Günthner va Angelina Linke rahbarligida “madaniy analitik tilshunoslik”ka (kulturanalytische Linguistik) bagʻishlangan jurnalning butun boshli sonini<sup>1</sup>, 2007-yilda Nemis tili institutida (IDS-Institut für Deutsche Sprache) shu nom ostida oʻtkazilgan konferensiya hamda Eichinger, Ludwig hamda Kämper, Heidrun tomonidan nashr etilgan mazkur konferensiya maqolalar toʻplamini<sup>2</sup> hamda Jäger, Ludwig va boshqalar tomonidan 2016-yilda chop etilgan dasturiy xarakterdagi, maqolalar toʻplamini<sup>3</sup> keltirish mumkin. Ikkinchi yoʻnalishga slavyanshunos olim Kusse, Holgerning 2012-yilda nashr etgan monografiyasini<sup>4</sup> keltirish mumkin. Aytib oʻtish joizki, Kusse birinchi tadqiqot yoʻnalishidan farqli ravishda, nisbatan torroq yoʻnalishda “madaniy tilshunoslik” (Kulturwissenschaftliche Linguistik) tadqiqot metodologiyasi sifatida asoslab, koʻproq amaliy jihatdan yondashgan. Aynan

---

<sup>1</sup> *Zeitschrift für germanistische Linguistik* 34 (1-2), 2006.

<sup>2</sup> *Sprache – Kognition – Kultur. Sprache zwischen mentaler Struktur und kultureller Prägung*. Berlin; [De Gruyter, 2008. Til – Kognitsiya – Madaniyat. Mental strukturalar va madaniy taʼsirlar doirasidagi til. Berlin, De Gruyter nashriyoti. 2008].

<sup>3</sup> *Sprache – Kultur – Kommunikation*. [Berlin; Boston: De Gruyter Mouton, 2016. – Til – Madaniyat – Kommunikatsiya, Berlin; Boston; De Gruyter Mouton nashriyoti, 2016].

<sup>4</sup> *Kulturwissenschaftliche Linguistik. Eine Einführung*. UTB-Band-Nr. 3745. [Göttingen: Vandenhoeck & Ruprecht; Куссе, Хольгер 2016: Культуроведческая Лингвистика. Введение. Пер. с Нем. М. Новоселовой. Казань: Изд-во Казан. Ун-та].

ushbu yondashuv o'zbek lingvokulturologiyasiga nazariy-uslubiy jihatdan yaqin kelganligini qayd etish mumkin. Olimning "madaniy tilshunoslik" metodologiyasini ishlab chiqishda lingvokulturologiya fani va tadqiqot uslublarining nazariy asoslarini tashkil qiluvchi Wilgelm von Gumboldt, A.A.Potebnya qarashlari yoki Moskva konseptualizmi (Logicheskiy analiz yazyka) kabi ta'limotlardan foydalanganligi yuqoridagi fikrning yana bir isbotidir. Qayd etib o'tish joizki, nemiszabon ilmiy doiralarda aksariyat ko'pchilik olimlar birinchi yo'nalishda faoliyat yuritib, ikkinchi yo'nalishdagi Kusse, Holgerning madaniy tilshunoslik haqidagi qarashlari deyarli e'tirof etilmaydi.

### **Madaniy tilshunoslik metodologiyasi**

Dastlab Holger Kussening madaniy tilshunoslik metodologiyasiga qisqacha to'xtalinadi. Olim madaniy tilshunoslik haqida to'xtalar ekan, uni defisli-lingvistikalar (Bindestrichlinguistiken) hisoblanuvchi pragmalingvistika, sotsiolingvistika, shevashunoslik, gender lingvistikasi, psixolingvistika, kognitiv lingvistikasi kabi fanlar qatoriga qo'shib, uni fanlararo xarakterdagi, bosh vazifasi yuqoridagi sanab o'tilgan fanlarni integratsiya qiluvchi fan sifatida ta'riflaydi. Shuningdek, Kusse tahlil jarayoni metodologik jihatdan asosan deduktiv tamoyilga muvofiq amalga oshirilishini qayd etadi. Ya'ni, madaniy lisoniy tahlil jarayonida katta, umumiy til birliklaridan, tilning kichik, xususiy va mikrobirliklari tomon harakatlaniadi: ma'lum bir turdagi diskursdan, to ma'lum matn turida realitatsiya qilingan matngacha, tadqiqot obyekti ishtirok etgan alohida jumlagacha. O'rganilayotgan obyekt yoki til shakli yoki til fenomenini tegishli diskursga, matnga hamda jumlagacha bog'langan holda tasvirlanadi. Til mikrostrukturalari bog'lanib keladigan katta birliklar sifatida bu yerda nafaqat milliy yoki etnik, davlat madaniyatlari, balki diskurslar hamda siyosat, din, huquq, iqtisodiyot yoki fan muloqot sohalari ham tushuniladi [Kusse 2012, 15-19, 41-42].

Til-madaniyat-aloqalarini tahlil qilish uchun olim *humboltcha* va *diskurssensitiv* deb nomlangan ikki yondashuv konseptini ishlab chiqadi. Humboltcha yondashuv deganda, olim Vilhelm von Humboldt hamda rus olimlari Vereščagin hamda Kostomarovlarning [Vereščagin, Kostomarov 1976] qarashlaridan foydalanib, tilni dastlab uchta darajada madaniy fenomen sifatida, jumladan, til materiali yoki leksika, kommunikativ muloqot jarayonidagi til materialining ishlatilishi hamda tekst va unda aks etgan madaniy relevant ma'no darjalarida hamda bir til va bir milliy madaniyatga aloqadorligini

tushunadi.

Ammo amaliyotda shunchaki *bitta* madaniyat yoki *bitta* til emas, balki kundalik hayotda, kasbiy kontekstlarda, iqtisodiyotda, fan va boshqa sohalarida turli-tuman muloqot, xatti-harakatlar va qadriyatlar olami mavjud. Ushbu muloqot sohalaridagi til va kommunikativ shakllar va mazmunlarni Kusse diskurslar deb ataydi. Bu jarayonda Kusse jamiyatlarda mavjud diskurslarni farqlashda olim Charles Morrisning diskurs tipologiyasiga asoslanadi [Morris 1946]. Charles Morris har bir diskurs turini ikki xususiyatga ko'ra, diskursning faktlarni ifodalash usuli (mode) hamda til belgilarining diskursning kommunikativ maqsadlaridan kelib chiqib ishlatilishi bo'yicha tasniflaydi hamda ilmiy, diniy, siyosiy, iqtisodiy, texnologik, mantiqiy-matematik kabi jami o'n olti xil diskurs turlarini farqlaydi [Kuße 2012, 118-120]. Mazkur diskurslarda ishlatiladigan til shakllarining o'ziga xosliklarini Kusse aynan *diskurs sensitiv* ishlatilish deb ataydi va uing fikricha, ba'zan ma'lum so'zlar tanlanishi bilan beixtiyor ma'lum bir diskurs tushuniladi. Misol uchun, bu o'rinda *adolat*, *ozodlik*, *birdamlik* kabi so'zlarning ishlatilishi siyosiy diskurs haqida gap ketayotganiga ishora bergani kabi.

Madaniy tilshunoslik Kussega ko'ra, uchta o'qlar kesishmasidan iborat uch o'lchamli model doirasida harakatlanadi. Jumladan, milliy yoki etnik yoki Humboldt o'qi (tadqiqot obyektining variantlari tadqiqi, qiyosiy tilshunoslik), diskurslardagi kommunikativ diversifikatsiya yoki diskursiv o'q (tadqiqot obyektining turli diskurslardagi variantlari, diskurslar lingvistikasi) hamda tarixiy rivojlanish yoki diaxronik o'q (tadqiqot obyektining diaxronik ma'nolari o'zgarishi, etimologiya) doiralarida. Ushbu o'qlarning kesishmalarida aynan tadqiqot obyektini ko'rish va tasvirlash mumkin. Tadqiqotlar jarayonida tadqiqot obyektini va maqsadidan kelib chiqqan holda ma'lum bir o'qqa ko'proq e'tibor berilishi mumkin va lozim. Ya'ni tadqiqotlar ba'zan diaxron, ba'zan milliy va etnik madaniyat va tilning Humboltcha munosabatlariga va ba'zan til madaniy aspektlarining ma'lum bir diskurslar doirasidagi tahliliga qaratilgan, hamda xuddi shunibgdek tadqiqotlarda har uchala o'q yoki bitta aspekt e'tiborga olinishi mumkin [Kuße 2012, 21-25, 120-121].

### **Madaniy tilshunoslik tadqiqot yo'nalishi, dasturi va nazariyasi**

Garchi tilshunoslikning asosiy obyektini bo'lsa-da, u tilning barcha xususiyatlari bilan qiziqmaydi. Zamonaviy lingvistikaning boshlanishi sifatida ko'ruluvchi strukturalistik burilish bilan tilning

boshqa turli maqsadlari va funksiyalari tizimli ravishda e'tibordan chetga surilib, til belgilar sistemasi sifatida lingvistik tadqiqotlar markaziga qo'yildi. Ko'pgina strukturalistik maktablarning semantik masalalarni e'tibordan chetda qoldirishi yoki boshqacharoq aytganda, madaniyat masalalari tilshunoslikning qiziqishlar doirasidan, ayrim istisnolarni aytmasa, butunlay chetda qoldi [Eichinger 2008, 3-4].

Tilni madaniy aspektlar bilan bog'lash bo'yicha aslida tilshunoslikning ichida ham shu vaqtga qadar ayrim istisno an'analar mavjud. Jumladan, lug'at boyligi va lug'atshunoslik masalalari aks etuvchi Semantika va Leksikologiyada mazkur an'ana uzluksiz ravishda davom etib kelmoqda. Nisbatan batafsil bo'lgan bir tilli, izohli lug'atlarni "madaniyatdan xoli" tasavvur qilib bo'lmaydi. Garchi lug'at birliklari ma'nolari maqsadli ravishda real hayotdan holi tafsivlansa-da, mazkur til birliklarining prototip, tushunarli misollar bilan aniq ishlatilish kontekstlarida berilishi, bizni ma'lum bir hayotiy tanish bo'lgan vaziyatlarga olib kiradi va bu orqali bo'lg'usi o'zaro muloqotlarda qo'llay olish uchun ishonchli asos yaratib beradi [Eichinger 2008, 3-5]. Shuningdek, til tarixi sohasini ham ushbu sohaga kiritish mumkin. So'zlarning semantik maydoni yoki frazeologizmlar sohasida olib borilgan tadqiqotlarni ham ushbu sohalarga kiritish mumkin bo'lsa-da, ushbu tadqiqotlarning madaniy tadqiqotlarga qo'shgan hissasini bilvosita deb atash mumkin. Yuqorida keltirilgan tilshunoslikning barcha sohaslarini madaniy fanlarga asoslangan tilshunoslikning "an'analari" deya umumlashtirish mumkin [Busse 2016, 652-653].

### **Linguistic turn - lingvistik burilish**

Tilshunoslikning ichida til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik, tilshunoslikni yangicha "madaniy fan" (Kulturwissenschaften) sifatida talqin qilish bo'yicha qizg'in, bir-biriga qarama qarshi diskussiyalar olib borilayotgan vaqtda, tilshunoslikka qo'shni bir qancha fanlarda, jumladan, tarix, adabiyotshunoslik, etnologiya, antropologiya, ijtimoiy fanlar va hatto iqtisodiyot fanlari ham o'zlarini "madaniy fan" deya talqin qila boshlashdi va tilning gnoseologik hamda epistemologik ahamiyatini o'z tadqiqotlar markaziga qo'ygan holda tilni madaniy aspektlar perspektivasidan tadqiq qila boshlashdi. Tilga berilgan ushbu yangicha qiymat terminologik jihatdan 1967-yilda fanga faylasuf Richard Rorty tomonidan olib kirilgan, butun dunyo fan olamida kuzatish mumkin bo'lgan "lingvistik burilish" yoki "linguistic turn" (The

Linguistic Turn, 1967, Rorty, Richard) terminida o'z ifodasini topdi. Ushbu ma'noda nemis lingvistikasi va tilshunoslik fani "linguistic turn" jarayonini o'tkazib yubordi deb aytish mumkin. Vaholanki, (nemis) tilshunosligi til va madaniyatning uzviyligi borasida uzoq, o'zgaruvchan bo'lsa-da, ammo hech qachon uzilib qolmagan tarixiy an'analarga ega. Wilhelm von Humboldt, August Schleicher, Heyman Steinthal, Vilhelm Vundt kabi olimlar o'z qarashlarida til tegishli jamiyatning madaniyatini ifodalashini, madaniyatni tilni hisobga olmasdan yoki tilni madaniyatni hisobga olmasdan adekvat tadqiq qilib bo'lmasligini e'tirof etishgan [Günthner, Linke 2006, 4-5].

Yuqorida keltirilgan lingvistik burilish ham birdaniga paydo bo'lib qolmagan, aksincha u Vilhelm von Humboldt (1767-1835), Johann Gottfried Herder (1744-1803) va Ernst von Cassierer (1872-1945) kabi olimlarning lisoniy falsafiy qarashlari zahirida vujudga kelgan. Asosiy nazariy asoslari sifatida Ludwig Wittgenstein (1889-1951) hamda John Longshav Ostin (1911-1960) lisoniy falsafiy qarashlari yotadi. Lingvistik burilishning eng asosiy belgisi falsafa fanining tilga va uning fenomenlariga haqiqatni aks ettiruvchi va shu bilan bir vaqtda haqiqatni yaratuvchi yoki haqiqatni idrok etishni shakllantiruvchi deya qarashning boshlanishidir. Falsafa fanining tilga bo'lgan ushbu munosabati o'z navbatida keyinchalik ijtimoiy-gumanitar, madaniy va tarix fanlariga bevosita katta ta'sir ko'rsatdi [Hornscheidt 1997, 175-206]. Lingvistik burilish bilan tadqiqot metodologiyasida ham burilish yuzaga kelib, oldingi kvantitativ-tushuntirish jarayonidan kvaliativ-talqin qilish jarayoniga o'tildi va ushbu xususiyatiga ko'ra lingvistik burilish falsafaning bilish nazariyasi ta'limotidagi (Philosophy of science) klassik pozitivizm (positivism, Auguste Comte – 1798-1857) yoki mantiqiy pozitivizm (logical positivism, Rudolf Carnap – 1891-1970, Vienna Circle – 1924-1936), hamda kritik ratsionalizm paradigmalardan uzoqlashgan holda konstruktivizm (constructivism) paradigmasi bilan chambarchas bog'lanadi [Günthner, Linke 2006, 3].

Tilshunoslikning ichida va unga yondosh bo'lgan fan sohalarida an'anaviy tilshunoslikdagi reduksionizm va tilga faqatgina grammatik tizim sifatida bir-tomonlama yondashuvga qarshi vujudga kelgan, tilning madaniy aspektlarini e'tirof etuvchi yangi yo'nalishlar hisoblanuvchi, tilni ijtimoiy muhitdagi kommunikativ harakatning markaziy asosi sifatida ko'ruvchi "Muloqot etnografiyasi – Ethnography of Communication" (Dell Hymes/ John Gumperz 1972), qanday qilib kishilar xatti harakati

ijtimoiy voqelikni yaratishi haqidagi “Etnometodologiya – Ethnomethodology” (Garfinkel 1972), “Etnometologik muloqot tahlili – Ethnomethodological conversation analysis” (Sacks 1964/1968/1992), ijtimoiy vaziyatlarda odamlarning xatti-harakatlari va muayyan taassurotlarni yetkazish uchun o‘z harakatlarini qanday nazorat qilishlari haqidagi “Interaksiya tahlili – interaction analysis (Goffmann)”, “Interaksional sotsiolingvistika – interactional sociolinguistics” (Gumperz 1982), sotsiolingvistika va ayniqsa madaniyatlararo muloqot sohalari konservativ tilshunolar doiralarida aksincha kinoya bilan “defisli lingvistika” yoki “defisli fanlar” (Bindestrich-Linguistik yoki Bindestrich-Wissenschaften) deb atab kelindi [Günthner, Linke 2006, 3, 14-18]. Hattoki, XX asrning uchinchi choragiga kelib, lingvistika fani doirasida yangi shakllana boshlagan sotsiolingvistika va pragmatika sohalari ham dastlab tilning madaniy aspektlariga deyarli e’tibor berishmagan [Busse 2016, 645, 655-656].

Birgina misol sifatida, chet tillar fanlari orbitasida harakatlanib keluvchi madaniyatlararo muloqot faniga nazar solish kifoya. Chet tillar fanlari doirasida hamda u bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ta’lim va integratsiya siyosatlarida ham tilning madaniy aspektlar bilan uzviy bog‘lanini kuzatish mumkin. Ushbu fanlar va sohalarda doirasida til va madaniyat o‘rtasida yaqin va hatto uzviy bog‘liqlik degan faraz asosiy presuppozitsiyalardan biri hisoblanadi. “Umumyevropa til bilish ko‘nikmalari”, ya’ni CEFR talablari-da ham, “madaniy kompetensiya”, “sotsiomadaniy kompetensiya”, “plurilingual va plurimadaniy kompetensiya” talablari keltirib o‘tilgan.

Yaqinda to‘liq qayta ishlangan va kengaytirilgan CEFR ko‘nikmalarida ushbu deskriptor va malakalar yanada kengaytirilgan [Zabel 2021, 340; Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment. Companion volume 2020; Gemeinsamer europäischer Referenzrahmen für Sprachen. lernen, lehren, beurteilen. Begleitband 2020]. Xuddi shunday “madaniyatlararo kompetentlik”, “madaniyatlararo o‘rganish” kabi bir qator atamalar xorijiy tillar va unga yondosh bo‘lgan fan sohalari, ayniqsa, ta’lim standartlarining, o‘quv rejalar va boshqa o‘quv me’yoriy hujjatlarning ajralmas tarkibi hisoblanadi. Kundalik muloqotda qatnasha olish ko‘nikmasi ma’nosidagi kommunikativ kompetensiya va uning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lmish madaniyatlararo kompetentlik konsepsiyasi, ayniqsa, so‘nggi 40 yil davomida zamonaviy chet tili

darsining bosh va yetakchi maqsadi sifatida ko'rib kelinmoqda [Zabel 2021]. Chet tillar fanlarida hamda didaktikasida mavjud ushbu presuppozitsiya o'z navbatida Gumboldt qarashlariga borib taqaladi. Gumboldtning fikriga ko'ra, (milliy) tillar bir-biridan tovushlar yo belgilar shakli darajasida emas, balki til strukturalarida mujassamlashgan dunyoqarashlarda farq qiladi. Gumboldtning fikriga muvofiq «xorijiy» tillar bilan ishlash boshqa dunyoqarashlarga kirish imkonini beradi va bu ta'lim jarayonlari uchun muhimdir. Gumboldtning mazkur qarashlari keyinchalik chet tillari fanlari va didaktikasining xorijiy tilni o'rganish bu "xorijiy madaniyat»ni o'rganish bilan tengdir degan fikrni qo'llab-quvvatladi [Zabel 2021, 343].

### **Cultural turn – madaniy burilish**

Tilshunoslik tadqiqot rakursiga madaniy aspektlarning olinishi 1980-yillardan boshlab ijtimoiy va gumanitar fanlar sohasidagi madaniy burilish (cultural turn) fenomeniga ham borib taqaladi. Madaniy burilish (cultural turn) kontekstida bilim va mazmunga asoslangan madaniyat tushunchasi shakllana boshladi. *Obyektiv reallik kategoriyalarda fikrlash, ma'nolar kategoriyasida fikrlash* konsepsiyasiga va har bir reallikni talqin qilishga bog'liqligi ta'kidlanadi. Shunga muvofiq madaniyat tushunchasi germeneytik va sotsialkonstruktiv konsepsiyaga aylandi. Madaniyat endilikda butun boshli guruhlarning yashash yoki xatti-harakat tarzlari emas, ma'no tizimlari va ramziy qoidalar sifatida tushunila boshlandi. Insonlar endilikda madaniyat yordamida o'z realliklarini mazmunli yaratishadi. Bunda ularga bilimlar qoidalari, bir tomondan, o'z xatti-harakatlarini amalga oshirishga imkoniyat bersa, boshqa tarafdin ularning xatti-harakatlarini chegaralaydi [Reckwitz 2000, 84]. Ijtimoiy va gumanitar fanlarning markaziy va an'analarga boy "millat", "o'zlik", "irq", "jins" kabi kategoriyalari yangi ma'no kasb eta boshlaydi. Ular real va "tabiiy" berilgan vaziyatlar emas, balki diskursiv konstruktlar sifatida turli diskurslarda o'zaro taqdim qilinadigan, muhokama qilinib, amalga oshiriladigan ijtimoiy ma'no tizimlarining elementlari sifatida ko'riladi. Aytib joizki, mazkur tushuncha zamirida ilmiy tadqiqot paradigmasining ko'proq tabiiy fanlar uchun xos bilimlar paradigmasidan ijtimoiy-gumanitar fan sohalorida interpretatsiya paradigmasiga almashganini ko'rish mumkin. Inson xulq-atvori endilikda tabiiy fanlar modeliga muvofiq bir yoqlama tushuntirilmadan, uning xatti-harakatlari ma'nosi qanday tushunilishi, rekonstruksiya qilinishi, qabul qilinishi,

yaratilishi, barqarorlashtirilishi, o'zaro kelishilishi, shubha ostiga olinishi, tasdiqlanishi va amalga oshirilishi ustuvor hisoblanadi [Zabel 2021; Altmayer 2010, 1408; Altmayer 2021, 388-389; Islomov 2023, 115-116].

Madaniyatshunos faylafus olim Ernst Cassierer Humboldt qarashlarida keltirilgan tilning "dunyoni, haqiqatni kashf qilish" tavsifiga qarshi, tilning va barcha ramziy shakllarning funksiyasi bu "dunyoni shakllantirish" vositasi deya ta'rif beradi. Bu orqali lisoniy ramziylashtirish mahsulotga emas, jarayonning o'ziga, uning naqadar kreativligiga urg'u beradi [Günthner, Linke 2006, 11-12]. Ernst Cassiererning falsafiy qarashlarini uning til va fikrlash, fikrlash va madaniyat hamda madaniyat va tilning ajralmas ekanligi haqidagi qarashlarini (Cassierer, E. (1994). *Philosophie der symbolischen Formen* (Sonderausgabe). Vissenschaftliche Buchgesellschaft. Darmstadt [Abt. Verl.]), hech shubhasiz, madaniy tahlilga asoslangan tilshunoslik nazariyasi tarixining va bo'lg'usi til va madaniyat, til shakllanishi va madaniy jarayonlar munosabatlari nazariyasining asoslaridan deb aytish mumkin [Günthner, Linke 2006, 12].

Ayni damda madaniy fanlarga asoslangan tilshunoslikning yangi va innovatsion qarashlarni semantika, pragmatika, muloqot tahlili, matn lingvistikasi, sotsiolingvistika, grammatika va boshqa sohalarda uchratish mumkin [Busse 2016, 645, 655-656]. Bugunga kelib, tilshunoslikda tilning madaniy aspektlarini tadqiq va tahlil qilishga hech kim shubha bildirmasa-da, ko'p yillar davomida tadqiqot rakurslaridan butunlay chetda qolgan tilning madaniy aspektlariga tobora ko'proq e'tibor berilayotgani, belgi (signs), xatti-harakat (action), mediallilik (mediality), ijro (performance), dialogiklik (dialogicity), ijtimoylilik (sociality), niyatlilik (intentionality), situativ yaratilish (emergence), amaliyot (practice) va avtomatizmlar (automatizms) kabi umumiy tushunchalar bilan semantik maydon hamda konseptual tarmoq shakllangani holda madaniy tilshunoslikning integrativ nazariyasi, dasturi hozircha yaratilgani yo'q [Werner, Ludwig 2016, 944-956; Günthner, Linke 2006, 18].

### **Pragmatic shift - pragmatik burilish**

Tilshunoslik sohasida tilning madaniy aspektlarining tadqiqotlar obyektiga aylanishiga yana bir sabablardan biri – bu xalqaro miqyosda aynan tilshunoslik hamda grammatik nazariyalar sohasida 1970-yillardan boshlab paydo bo'lgan yana bir burilish

– “(kommunikativ) pragmatik burilish“ni (pragmatic shift) ham keltirib o‘tish maqsadga muvofiq. Ushbu burilishning tub mohiyati shu paytgacha amal qilgan tizimga asoslangan yoki tizimga yo‘naltirilgan tilshunoslikdan uzoqlashib, muloqotga yo‘naltirilgan tilshunoslikka yuzlanish hisoblanadi.

Tilshunoslikning markaziy qiziqishi til tizimining ichki (sintaktik va semantik) xususiyatlaridan tilning (ijtimoiy) muloqot jarayonidagi, murakkab tuzilishidagi funksiyasiga o‘tdi. Oldingi tilshunoslik (ayniqsa, De Sassure va Chomsky) ushbu murakkab aloqalarni deyarli e‘tiborga olmay, faqatgina ichki til tizimi bilan chegaralanib qolgan. Aniq muloqot jarayonlarida til tizimidan foydalanish (Parole) masalalarini tilshunoslikdan chiqarib tashlagan va aynan shu sababdan abstrakt, kontekstdan ajratilgan va qisqartirilgan tadqiqot obyekti bilan ishlashiga to‘g‘ri kelib, ko‘pgina hollarda tadqiqot obyektining nima uchun va nimadan mavhumlashtirilgani ongsiz amalga oshirilgan. Boshlang‘ich nuqta sifatida bu yerda til tizimi belgilarining maqsad emas, balki til belgilaridan tashqarida bo‘lgan maqsadlarga eltuvchi vosita sifatida ko‘rilishi belgilab berilgan. Kommunikativ-pragmatik burilish natijasida matn lingvistikasi, pragmalingvistika, prototip semantikasi, klinik tilshunoslik, korpus lingvistikasi, kompyuter lingvistikasi, muloqot tahlili, neyrolingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, interaktiv tilshunoslik va boshqa fanlar vujudga keldi [Helbig 1988, 13-18]. (Kognitiv) pragmatik burilishning asosiy xususiyatlarini quyidagi jadvalda aniqlash mumkin:

<b>(Kognitiv) pragmatik burilishdan oldin</b>	<b>(Kognitiv) pragmatik burilishdan keyin</b>
Langue – til strukturalari va tizimlari	Parole – til strukturalarining konkret vaziyatlarda ishlatilishi
Til tizim sifatida	Til shunchaki tizim emas, undan kattaroq va ko‘proq
Tizimga asoslangan va tizimga yo‘naltirilgan lingvistika	Muloqotga asoslangan va yo‘naltirilgan lingvistika
Tushunish analitik jarayon	Tushunish konstruktiv jarayon
Tadqiqot qiziqishi– sintaktik, semantik aspektlar, tilning ichki qurilishi va tizimlari	Tadqiqot qiziqishi – semantik aspektlar, kognitiv strukturalar, ijtimoiy muloqotning murakkab tuzilmasida tilning funksiyasi

Alohida jumalarning tahlili	gaplar,	Diskurslar, vaziyatlar, muloqotlar aloqalarining tahlili. Idrok etilgan jumla va shaxsning individual dunyoviy bilimlari asosida ma'no strukturasi shakllantiriladi. Mazkur ma'no strukturasi mental jihatdan aytilgan, jumladan, tashqariga chiquvchi faktlar ham ifodalanadi.
Tilning jarayonlarini tadqiq qilish	ichki	Gapirish, yozish, o'qish va tinglash jarayonlarida lisoniy va kognitiv jarayonlar tahlil qilinadi va modellashtiriladi
Klassik fanlar		Defisli lingvistikalar

[Katinas 2010; Helbig 1988, 13-18].

### **Til, tilshunoslik va nazariyalar**

Umuman olganda, tilshunoslikda til bo'yicha an'anaviy ravishda uchta nuqtayi nazar farqlanadi. Bu farqlarning barchasi tilning tizim sifatidagi va tilning harakat sifatidagi farqi bilan bog'liq

○ Til tizim sifatida – buyuk tilshunos De Sossyurning “Langue” yoki Chomskyning “Competence” yoki Humboldtning “Ergon” konseptlari yoki til. Tilga tizim sifatida qarash tilni ichki tuzilgan, grammatik tuzilma sifatida tekshirish demakdir. O'rganish obyektlari tovushlar, morfemalar, so'zlar, gaplar va matnlardir.

○ Til nutq harakati sifatida – buyuk tilshunos De Sossyurning “Parole” yoki Chomskyning “Performance” yoki Humboldtning “Energeia” konseptlari yoki nutq. Harakat bilan bog'liq yoki pragmatik nuqtayi nazardan qarash tilning muloqotda qanday ishlatilishini tekshirishni anglatadi. Pragmatika deganda, tildan foydalanish qoidalarini o'rganuvchi soha tushuniladi

○ Til dinamik-performativ jarayon sifatida. Bu yerda universal shakllar va qoidalar emas, balki faqat amaliyotda qo'llash, ushbu qo'llash jarayonida yaratilgan va o'zgartirilgan shakllarga e'tibor beriladi [Zabel 2021, 340-341; Müller 2009, 36-38].

Xuddi shuningdek, zamonaviy tilshunoslikda mavjud ko'p sonli nazariyalarni ham, asosan, quyidagi asosiy pozitsiyalarga bo'lish mumkin:

- strukturalizm yoki til tizimlari nazariyasi (De Sossyure);
- generativ lingvistika til kompetensiyalari nazariyasi sifatida (Chomsky);
- nutq akti nazariyasi tildan foydalanish nazariyasi sifatida;
- yana bir muhim lingvistik paradigma sifatida bu yerda muloqot tahlili va ushbu paradigmadan kelib chiqqan interaktiv lingvistika kabi metodlarni ham keltirib o'tish mumkin. Asosiy

e'tiborini sotsiologik xarakterdagi fenomenlarga qaratgan muloqot tahlilida, eng avvalo, nutq jarayonini tashkil etish masalalari diqqat markazida bo'ladi [Hindelang 2010, 1].

Bunda madaniy tilshunoslik va til didaktikasini ko'proq ikkinchi yo uchinchi perspektivalarga, zamonaviy lingvistik nazariyalar nuqtayi nazaridan uchinchi yo to'rtinchi pozitsiyada joylashtirish mumkin bo'lib, ular til faqatgina ijtimoiy kontekstda va kommunikativ foydalanishdagina tilga aylanadi degan fikrni inobatga olishadi [Zabel 2021, 340-341].

### **Tilshunoslik paradigmalari**

